



Xizmatlar sohasining rivojlanishi

(dastlabki ma'lumotlar)

2018 yil yanvar-oktyabr

RAQAMLAR:


- 2018 yil yanvar-oktyabr oylarida bozor xizmatlari hajmi 3108,8 mlrd.so'mga teng bo'ldi.
- Moliyaviy xizmatlarning o'sish sur'atlari 141,9 %ni tashkil qildi.
- Aholi jon boshiga xizmatlar hajmi 3225,2 ming so'mga yetdi.

Ma'lumki, xizmatlar ko'rsatish tizimini yaxshilash va modernizatsiya qilish aholi turmush darajasini oshirish, investitsiya va ishbilarmonlik muhitini yaxshilash va tadbirkorlikni rivojlantirishga yordam beradi.

2018 yil yanvar-oktyabr oylarida dastlabki ma'lumotlarga ko'ra ko'rsatilgan xizmatlar hajmi 3108,8 mlrd.so'mga teng bo'ldi. O'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 112,2 % ni tashkil etdi.

Ko'rsatilgan xizmatlar umumiy hajmida eng katta ulushni savdo xizmatlari (36,0 %), transport xizmatlari (20,0 %), moliyaviy xizmatlar (13,3 %), aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (5,8 %) tashkil etdi.

2018 yil yanvar-oktyabr oylarida xizmatlar tarkibi,%




2018 yil yanvar-oktyabr oylarida dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi 3108,8 mlrd. so'mga teng bo'ldi. O'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 112,2 % ni tashkil etdi.

2018 yil yanvar-oktyabr oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha xizmatlar ishlab chiqarish hajmi

	Hajmi, mlrd.so'm	O'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati, %
Xizmatlar - jami	3108,8	112,2
shu jumladan:		
aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	179,7	115,7
moliyaviy xizmatlar	414,6	141,9
transport xizmatlari	621,0	107,1
shu jumladan: avtotransport xizmatlari	479,5	103,5
yashash va ovqatlanish xizmatlari	128,0	102,6
savdo xizmatlari	1119,3	105,1
ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar	65,5	106,4
ta'lim sohasidagi xizmatlar	110,8	114,7
sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar	28,2	106,3
ijara xizmatlari	53,9	107,2
kompyuterlar va ma'shiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar	57,4	103,0
shaxsiy xizmatlar	80,6	101,9
me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar	104,8	232,0
boshqa xizmatlar	145,0	103,1

O'tgan yilning shu davriga nisbatan savdo xizmatlari (1119,3 mlrd. so'm), transport xizmatlari hajmi (621,0 mlrd. so'm), moliyaviy xizmatlar (414,6 mlrd. so'm), aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (179,7 mlrd. so'm), boshqa xizmatlarda (145,0 mlrd. so'm) oshishi kuzatilmoqda.


2018 yil yanvar-oktyabr oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlarining hajmi, mlrd.so'm



Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlarda xizmatlar hajmi nisbatan pastroq o'sish (28,2 mlrd. so'm) qayd etildi.

Eng yuqori o'sish sur'atlari me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar (232,0 %), moliyaviy xizmatlar (141,9 %), aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (115,1 %), ta'lim sohasidagi xizmatlar (114,7 %) kabi xizmat turlarida qayd etildi.


2018 yil yanvar-oktyabr oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlarining o'sish sur'ati, %



Nisbatan pastroq o'sish sur'atlari shaxsiy xizmatlar (101,9 %), yashash va ovqatlanish xizmatlari (102,6 %) kompyuterlar va ma'shiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar (103,0%), kabi xizmat turlarida kuzatildi.


Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlari tarkibida savdo xizmatlari sezilarli ulushni egallaydi. 2018 yil yanvar-oktyabr oylarida uning ulushi 36,0 % ni tashkil etdi. Shu bilan birga, eng yuqori ulushlarni transport xizmatlari (20,0 %), moliyaviy xizmatlar (13,3 %), aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (5,8 %) egallaydi.

2018 yil yanvar-oktyabr oylarida ko'rsatilgan bozor xizmatlari tarkibi, %



Me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar nisbatan yuqori o'sish sur'atlari qayd etilgan bo'lsada, lekin ularning ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmidagi ulushi arzimasi 3,4 % ni tashkil etadi. Shu bilan birga eng kichik ulush sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar – 0,9 % ni tashkil etadi.

2018 yil yanvar-oktyabr oylarida aholi jon boshiga ko'rsatkichlari




2018 yil yanvar-oktyabr oylarida aholi jon boshiga ko'rsatilgan xizmatlar hajmi 3225,2 ming so'mga teng bo'ldi. 2017 yil yanvar-oktyabr oylariga nisbatan o'sish 10,4 % ni tashkil qildi.

Hozirgi kunda respublika ulgurji va birja savdo korxonalari faoliyati uchun zarur qonunchilik asoslari yaratilgan, zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalangan holda chakana savdo tarmog'i faol rivojlanmoqda. Savdo xizmatlari iqtisodiyotda ko'rsatilgan xizmatlar umumiy hajmining sezilarli qismini tashkil qiladi.

2018 yil yanvar-oktyabr oylarida savdo xizmatlari hajmi 1119,3 mlrd.so'mga teng bo'ldi. Ko'rsatilgan xizmatlar umumiy hajmidagi ulushi 36,0 % ni tashkil etdi.

2018 yil yanvar-oktyabr oylarida



■ **Avtomobil va mototsikllar ulgurji va chakana savdosi, avtomobil va mototsikllarni ta'mirlash xizmatlarini qo'shgan holda**

■ **Ulgurji savdo xizmatlari (avtomobillar va mototsikllar savdosidan tashqari)**

■ **Avtomobillar va mototsikllardan tashqari chakana savdo bo'yicha xizmatlar**

Savdo xizmatlari tarkibiga avtomobillar va mototsikllardan tashqari chakana savdo bo'yicha xizmatlar katta salmoqqa ega bo'lib, uning ulushi 82,3 % ni tashkil etadi.

Ulgurji savdo xizmatlarining (avtomobillar va mototsikllar savdosidan tashqari) ulushi 12,1% ga yetdi.

Avtomobil va mototsikllar ulgurji va chakana savdosi, avtomobil va mototsikllarni ta'mirlash xizmatlarini qo'shgan holda umumiy savdo xizmatlarining 5,6 % ni tashkil qiladi.

Ushbu davrda yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar hajmi 128,0 mlrd. so'mga teng bo'ldi. 2017 yil yanvar-oktyabr oylariga nisbatan o'sish 2,6 % ni tashkil etdi. Ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmida yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarning ulushi 4,1 % ga yetdi.


Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar tarkibi



Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar hajmida oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlar 87,5 % ulush bilan etakchilik qilmoqda. Yashash bo'yicha xizmatlar ulushi 12,5 % ga to'g'ri keladi.

Ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi bo'yicha savdo xizmatlari etakchilik qilmoqda. Savdo xizmatlarining umumiy hajmida uning ulushi 36,0 % ni tashkil qiladi. Shuningdek eng yuqori ko'rsatkichlar transport xizmatlarida (20,0 %), moliyaviy xizmatlar (13,3 %) da kuzatildi.

Jami xizmatlarning umumiy hajmida ulushlarning o'tgan yilga nisbatan taqqoslanishi, %



Eng past ko'rsatkichlar kompyuterlarni ta'mirlash xizmatlari (1,8 %), ijara xizmatlarida (1,7 %), sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlarida (0,9 %) kuzatilmog'da.

Navoiy viloyati statistika boshqarmasi

Xizmatlar sohasi statistikasi bo'limi

Mas'ul: Sh.Xajiyeva

(71) 230-84-37
0(436)223-*63-31